



PHILOSOPHY OF SOCIAL DISCIPLINE OF CITIZENSHIP

Abdurashid Mirzakhmedov

Professor of Namangan State Technical University
Namangan, Republic of Uzbekistan
Namangan, Uzbekistan

Abdullajon Gulomov

Applicant of Namangan State Technical University
Namangan, Uzbekistan

Odilbek Urinov

Applicant of Namangan State Technical University
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Social existence and ethics of order, discipline, legality.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: In the article, the concept of discipline is interpreted as a necessary element of being, the quality of the stability of social reality, a factor in the development of nature and society. The authors implemented a philosophical approach to discipline as a solution to problems, moral, ethical, political and legal culture of a person, voluntary adherence to norms and rules. Disciplinary immunity guarantees social quality in the prevention of social deviations in the information society.

FUQOROLIKNING IJTIMOIIY INTIZOM FALSAFASI

Abdurashid Mirzaxmedov

Professori
Namangan davlat texnika universiteti
Namangan, O'zbekiston

Abdullajon G`ulomov

Tadqiqotchi
Namangan davlat texnika universitetining
Namangan, O'zbekiston

Odilbek Urinov

Tadqiqotchi
Namangan davlat texnika universitetining
Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Ijtimoiy borliq va tartib, intizom, qonuniylik axloqi.

Annotatsiya: Maqolada intizom tushunchasiga borliqning zaruriy unsuri, ijtimoiy voqelikning barqarorlik sifati, tabiat va jamiyat rivojining omili sifatida talqin qilingan. Mualliflar intizomga muammolarning yechimi, shaxsning ma'naviy-axloqiy, siyosiy-huquqiy madaniyati, me'yor va tartibga ixtiyoriy amal qilish falsafiy yondashuvini amalga oshirganlar. Jamiyatning axborotlashuvi sharoitida ijtimoiy deviatitsiyaning oldini olishda intizomiy immunitet ijtimoiy sifatni kafolatlaydi.

ФИЛОСОФИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ ГРАЖДАНСТВА

Абдурашид Мирзахмедов

Профессор

Наманганского государственного технического университета

Наманган, Узбекистан

Абдуллажон Гуломов

Исследователь

Наманганского государственного технического университета

Наманган, Узбекистан

Одилбек Уринов

Исследователь

Наманганского государственного технического университета

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Социальное существование и этика порядка, дисциплины, законности.

Аннотация: В статье понятие дисциплины трактуется как необходимый элемент бытия, качество устойчивости социальной реальности, фактор развития природы и общества. Авторы реализовали философский подход к дисциплине как решению проблем, морально-этической, политико-правовой культуре человека, добровольному следованию нормам и правилам. Дисциплинарный иммунитет гарантирует социальное качество в профилактике социальных отклонений в условиях информационного общества.

Kirish

Insoniyat tamadduni odamlarning umumiy qabul qilingan qonun-qoidalar bilan yashashi tufayli barqarorlikka erishgan. Odamlarning javoaviy turmushi yuksak darajada tashkil etilgan “organizm” darajasi umumiy farovonlikda oziq-ovqat, kiyim kechak, turar-joy qurish, yovvoyi hayvonlardan muhofazalanish umumiy manfaatdorlik asosida me’yor va qadriyatlarni shakllantirgan. T. Parsons mazkur holatni madaniyatlashuv bilan odamlarning integratsiyalashuvi natijasida ajdodlardan turmush tajribalarining merosi bilan o‘ziga xos hammaga umummajburiy harakat va harakatsizlik tamoyillarini hosil qilganligini tizimli tadqiq etgan [12, 16 b]. U jamiyatda odamlarning o‘zaro hamkorlikda jamoat tartibini saqlashga intilishi, etnokonfessional tartib qoidalarining ijrosiga “ijtimoiy ne’mat” sifatida qaragan.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sharoitida davlatlararo, xalqlararo munosabatlarni tartibga solish, Inson taraqqiyoti muammolarida ijtimoiy munosabatlarni umuminsoniy va milliy normalar asosida boshqaruvining murakkablashuvi kuzatilmoqda. Natijada, ijtimoiy hayot halqaro va mintaqaviy fuqarolik mojarolarini hal etish tamoyillarida zo‘rlilik va kuchdan foydalanishda namoyon bo‘lmoqda. Bu hol jamiyatning axborotlashuvi aholi turmush tarzida an’anaviy milliy-diniy qadriyatlardan begonalashuv, oila va nikoh munosabatlarida liberal qadriyat munosabatlarining rasmiylashuvi shaxs, jamiyat va davlat hayotida boshqaruvning elektron hukumat, raqamlashgan bosqichida o‘ta dolzarb muammoga aylantirmoqda [6; 20].

O‘zbekiston yangi Taraqqiyot strategiyasining nazariya va amaliyotida raqamlashgan jamiyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bobida turli-tuman qarash va yondashuvlar olg‘a surilsa-da, lekin ularda takrorlanish, muammolar yechimida inson manfaatlarining ustunligi, huquq va erkinliklarini ustuvorligini kuzatish mumkin. Ayni vaqtda ilmiy adabiyotlarda konstitutsion islohotlar sharoitida jamoat tartibini fuqarolarning xavfsizligi bilan uyg‘un holda tushunish, jamoat tartibida huquqiylikni ustuvorligiga e’tibor berishni kuzatish mumkin [18; 20]. Shu ma’noda raqamlashgan jamiyatda ijtimoiy tartib jamiyatdagi barcha qatlam va tabaqalarning o‘zaro umumiy farovonlik uchun ijtimoiy hamkorlikka ongli ravishda intilish, jamiyatning o‘zaro anglangan murakkab yuksak darajadagi “ijtimoiy organizm” sifatida tushunish o‘lkamiz halqlarida o‘ziga xos jihatga egadir. Maqola shaxs, jamiyat va davlat hayotini barqaror taraqqiyotida jamoat tartibini ta’minlashda halqaro, mintaqaviy va milliy darajalar bilan birga jamoatchilik tartibi va yo‘l transport tizimida intizom masalasi dolzarb mavzuga aylanmoqda. Jamoat tartibini saqlashda halqaro tashkilotlarning inson huquq va erkinliklari kontekstida bosimi ham ko‘p holatlarda kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Shu bilan birga, “Ommaviy madaniyat”

niqobida yoshlarning ma'naviyati, oila va nikoh munosabatlari sohasida suiste'mollari ham jamoat tartibini saqlash muammosi ilmiy tadqiqotni talab etmoqda [8, s.20; 9, s.23].

Intizom o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra insoniyatning ma'naviy-ahloqiy hayot kechirishga o'tganligining o'ziga xos yovvoyilikdan madaniy bosqichining ijtimoiy madaniyat ko'rsatkichidir. Islom sivilizatsiyasining ijtimoiy taraqqiyoti musulmon Allohning farz va o'zga amallarini so'zsiz bajarish, rasulining sunnatlarini chiroyli ado etish bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida fuqarolik munosabatlarini barqarorligini mustahkamlagan. Shu ma'noda islom diniga ta'riflarda musulmonning turmush nizomi, Qur'on va Hadislarda o'rnatilgan ahkomlarga tayanish fe'l-atvori ijtimoiy mental jihatga egadir. Fikrimizni imom al-Buxoriyning munosib davomchisi Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning islom dinida taqvodorlarning "Iymon" talablari "Baxtli oila" qurish tartib-qoidalari bilan izohlash mumkin [21]. MDH davlatlari ijtimoiy fanlarida intizomga oid tadqiqotlarni bir necha guruhga shartli bo'linsa, unda ta'lim va tarbiya, mehnat sohasida menejmet asosi va korxona taraqqiyoti, harbiy sohalarida esa davlat mudofaa qudrati bilan bog'liq holda tadqiqotlar amalga oshirilgan [2; 5; 6; 10]. Intizomning siyosiy jihatlari ijtimoiy hayot bilan bog'langan holda ham tadqiq etilgan [6, s. 38]. Bizning tadqiqotimizga yaqin maqsadlarda "konuniylik"va "intizom" nuqtayi nazarda ham ilmiy maqolalar uchraydi [15, s.22].

Ma'lumot va metodlar

Jamiyatning barqaror taraqqiyotiga oid ma'lumotlar o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ajdodlardan avlodlarga ijtimoiy tajribaning merosiyligi, jamiyat o'ziga xos ichki qonuniyatlarga ega ijtimoiy organizm sifatida odamlarning umumiy farovonlik manfaatlari bilan jamoaviy kayfiyat va mo'ljallarning shakllanishiga oid tarixiy, ijtimoiy-huquqiy manbalarga tayanadi. Tadqiqotning maqsadini amalga oshirishda umumnazariy usul va tamoyillardan foydalanish, induksion va deduksion usullar, umumiylik, alohidalik va xususiylikning dialektik metodlaridan foydalanildi.

Natijalar

Intizomning ijtimoiy qimmatini har qanday shaxs faoliyatining barqarorligini ta'minlash munosabati bilan ensiklopedik lug'at va nashrlarda atroflicha tahlil va talqin qilingan. Jumladan, ensiklopedik internet lug'atlarda "intizom lotinchadan "o'rgatish" ma'nosida shaxsni umumiy qabul qilingan qonun-qoidalariga amal qilishi, jamoaviylik va yakkaqlikni ijtimoiy tartibga solish unsuri, jamoaning xohish-irodasiga shaxsning itoat etish fe'lini ifodalaydi [3]. MDH mamlakatlari olimlari intizom inson hayotining barcha sohalariga oid ekanligi, ayniqsa maktab ta'lim, mehnat va harbiy intizomga doir yo'nalishlarda faol o'rganmoqdalar. Shu bilan birga intizom belgilangan nizom asosida yashash, o'rnatilgan tartibni hamma birgalikda bajarishi tufayli ommaviylikni alohidalikda namoyon bo'lishi ma'nosida ham tushunish mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridan

boshlab kishilik jamiyatining birga yashash odobi ma'nosida shakllangan me'yor, odat va an'analar bilan mustahkamlanib, intizom ijtimoiy qadriyatga aylangan.

Intizom o'z mohiyatiga ko'ra, ilohiy, tabiiy va ijtimoiy normalar asosida vujudga keladigan shaxsning ruhiy ma'naviy munosabati bo'lib, qonun va qoidalar, odat va an'analar bilan mustahkamlanib, ijtimoiy nazorat bilan boshqaruv shakliga aylangan. Intizom o'z mazmuniga ko'ra davr bilan milliy-diniy holat bilan alohida va individual xususiyatlarga ega bo'lib, davrning o'zida ehtiyojlarini ifodalaydi. Zamonaviy bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fuqarolar mulkiy munosabatlarining murakkablashuvi tufayli intizomiy tartib muammolari qonuniylik bilan izohlana boshladi. Chunki, fuqarolarning mulkiy va nomulkiy nizo va mojarolarining asosiy sababi amaldagi qonun-qoida, belgilangan ijtimoiy tartib, an'ana va odatlarga amal qilmaslik tufayli yuz bermoqda. Shu bois sharqona demokratiyalashuv sharoitida qonuniylikni ta'minlashda milliy axloqning bevosita uyg'unligi talab etiladi. Intizom o'z mohiyatiga ko'ra shaxsning ijtimoiy tartib va talablarga ixtiyoriy amal qilishi, o'zgalarning haq-huquqlarini xurmatlashni anglatadi.

Intizom huquqiy jihat va xususiyatlaridan kelib chiqishi bilan shaxsning jamiyat tomonidan qabul qilingan etnokonfessionallik talablariga amal qilishdir. Bu hol intizomning muhim tamoyili hisobdorlik bo'lib, jamoa oldida har bir xatti-harakat uchun javobgarlik mas'uliyatini talab etadi. Chunki, shaxsning jamoa va o'zining oldidagi ijtimoiy harakat yoki harakatsizligi uchun o'zining ijtimoiy odobini saqlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodi sharoitida intizom ishlab chiqaruvchi va iste'molchining munosabatlarida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, ilmiy adabiyotlarda "iste'molchilarning intizomiy fe'l-atvori va yurish turishiga" tadqiqotlar huquqiylik tamoyillarida ilmiy jamoatchilik muhokamasiga havola etilgan [13, s.117]. Shu ma'noda biz intizom fenomeniga ijtimoiy nazorat tamoyilida amaliy huquqiy sifatni namoyon etadi, deb o'ylaymiz. Zero, intizomni ta'minlashda nazorat omili muhim majburlash unsuri hisoblanadi.

Ijtimoiy tartibga ajdodlar o'zining avlodlarini ko'nikishi uchun ijtimoiy tarbiya tizimini uyushtirib, davlat, jamiyat va shaxs hamkorligini umumiy farovonlik yo'lida boshqargan. Bilaks, taxlil etilayotgan tushunchaning muhim jihati ta'lim va tarbiya bilan bog'lanib boshqaruvni siyosiy-huquqiy poydevorini hosil qiladi. Chunki, intizom ta'lim va tarbiyaning tarbiy qismi sifatida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali oila va maktabning tarbiya hamkorligini zaruriyatga aylantirgan. Shunday bo'lsa-da, ta'lim tizimida yoshlarning intizomini mustahkamlash borasida pedagoglar o'quvchini "jazolash" ma'nosida ham tushunish qabul qilingan. Bu bahs-munozalarda intizom va o'quvchiga ustozning mehr-muhabbati ma'nosida ham tushunishni nazarda tutadilar [11].

Davlat boshqaruvi yoki ta'limda mehnat intizomi, ayniqsa kasbiy axloqqa shaxsning munosibligini shakllantirishda nafaqat huquqiy-ijtimoiy bosim, nazorat va jazolash, balki xodimga

korxonaning pozitiv munosabati, inson sifatida qadrlanishining hissiyotini o'yg'otish darkor. O'z kasbi koriga qiziqqan odamning ijodiy faoliyatini tashkil etish sohaning muhim jihati bo'lib, xodimni korxona va o'z manfaatlarini uyg'unligi, jamoada kasbiy yetakchilik va tashabbuskorlikni (lider) rag'batlantirish nafaqat intizom, balki ijtimoiy hamkorlikning axloqiy fazilatlarini jo'sh urishiga olib keladi. Intizom tushunchasi huquqiy kontekstga ega bo'lsa-da, ijtimoiy-ruhiy omilga tayangan holda ma'muriy boshqaruvda xodimlarni korxona tartibi bo'yicha harakatga, alohida vazifa va mehnat normalarini sifatli ado etishga ma'naviy-ruhiy tayyorlaydi.

Mazkur atamaning mohiyat mazmuni murakkabligini e'tirof etgan holda shaxsning ijtimoiylashuvi har bir sohaga oid muayyan davrga mos xatti-harakatlarni ta'limda ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish orqali munosib fuqarolikka tayyorlash, milliy-diniy qonun-qoidaga itoatkor e'tikodli qilishdir. Ta'lim va tarbiya sohasidagi bolaning intizomi ijtimoiy qadriyat sifatida shaxsning fe'l-atvori, aql-tafakkurini ham belgilab beradi. Intizomiy munosabatlar bolaga taqiq, talab, qonun-qoidaga bo'ysunish, rejimda yashash, nazorat va jazo kabi turli-tuman cheklovlar bilan emas, balki bolalikdan turmush tartibiga o'rgatish intizomiy profilaktika deb o'ylaymiz. Zero yoshlarning ma'naviy axloqiy fazilatlarini shakllantirish qonun ustuvorligini tabiiy anglangan shaklda ta'minlash imkonidir.

Tadqiqotning muhokamasi

Davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarida intizom mazmuni musulmonga ilohiy bo'lib, unda ixtiyoriylik ustuvor bo'lsa, harbiyda iyerarxiya bo'yicha xarbiy tartibga itoatkorlik, ta'lim va mehnat sohasida vazifalarni qiyomiga yetkazgan holda ijrosi bilan intizom subyekt va obyektning ijtimoiy hamkorligi ostida boshqarilishi mumkin. Shu ma'noda rossiyalik olimlarning intizomga oid tizimli yondashuviga qo'shilish mumkin. Jumladan, ular intizomda tomonlarning nizoga bormaslik, avtoritarlikdan saqlanish, intizom subyekt va obyektida manfaatlarning xurmatlanishi, muammoli vaziyatda tushunish va tushuntirish va jazolashga eng oxirgi chora sifatida qarashni olg'a suradilar [14; 17].

Intizom ijtimoiy munosabatlarda shaxsning umume'tirof etilgan tartib va qoidalarga itoatkorligi bo'lganidan axloqiylikni o'zida ko'proq ifoda etadi. Davlat va shaxs munosabatlarida esa asosiy va amaldagi qonunlarga amal qilish bilan fuqarolik munosabatlarini barqarorligini ta'minlanadi. Harbiy intizom esa har bir xizmatchi uchun so'zsiz amal qiladigan normalarni o'zida mujassam etganidan "temir intizom"ni talab etadi. Shu ma'noda harbiy sohadagi tartiblar urush harakatlari va tinchlik davri talablarida ishlab chiqilgan. Tartib esa xarbiylashgan ijtimoiy muhitni milliy manfaatlarga xizmat qilishi, qurolli kuchlarning doimiy jangovor vazifalarga tayyor turishi bilan belgilanadi. Bu hol intizomni xarbiy sohadagi muhim axloqiy-huquqiy me'yor sifatida

tasdiqlaydi. Xarbiy intizomni o'rnatish uchun qo'mondonlikka majburlash imkoni berilgan. Harbiy qonun va qoidalarni buzilishi harbiy sud tomonidan jazo belgilanadi [1, s.209].

Ijtimoiy sohadagi intizomni ta'minlash, ayniqsa ta'lim va tarbiya sohasida o'ziga xos ma'naviy-ruhiy jihatlarga ega bo'lganidan usoz-murabbiy munosabatlarini tartibga solishda bir qator murakkablik, hatto paradoks holatlarni tug'diradi. O'quvchini maktab ta'limi talablarini bajarishi shart. Chunki davlat byudjetidan juda kata mablag'lar ta'lim sohasiga ajratilishi, sarf-harajatlarning hisobotida "ko'zbo'yamachilik" tufayli intizom va tartib izdan chiqmoqda. Biz fikrimizni 2022-yil Denov tumanining № 4 maktabida ingliz tili o'qituvchisi intizomiy jazo ko'llagani uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishi o'ziga xos paradoks deb xisoblaymiz. Intizom taxlilida jazo omiliga urg'u berishdan ko'ra o'quvchiga o'qituvchining insmoniy gumanizmi tartib o'rnatish omili degan qarashga moyilmiz. Jazolash zarur, lekin oxirgi chora sifatida bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki o'quvchilar uch toifaga bo'linishi o'rta asr allomalari tomonidan uchinchi toifa "kaltak" tarbiyasi ila ma'rifatlilik ta'limi o'zini oqlaydi. Bu hol jazoga loyiq o'quvchini ilm olishga majburlash texnologiyasi bilan birga o'zga auditoriyadagi o'quvchini o'zining intizomiy obro'-e'tiborini saqlash uchun foydalidir. Intizomiy jazo qo'llash o'z navbatida vakolatli shaxs yoki organning belgilangan tartib yoki qoidani buzilishidan kelib chiqadigan oqibatlarni bartaraf etish maqsadini ko'zlaydi. Mehnat munosabatlarida ish beruvchi va xodimning intizom bilan bog'liq munosabatlarida qonunda belgilangan ogohlantirish, xayfsan, qattiq xayfsan kabi tizimdagi jazolarni qo'llashi mumkin.

Xulosa

Olamning moddiy borlig'i muayyan tartib, qonuniyat va qoidalarga mos harakat va o'zgarishda mavjudlikni namoyon qiladi. Mavjudlik esa ilohiy, tabiat va davlat qonunlari asosida barqaror aloqadorlik va rivojlanishda shakllanadi. Shu ma'noda odamlarning biologik birligi jamoaviy turmush tarzini shakllantirgan. Odamlarning umumiy farovonlikka intilishi barcha munosabatlarni o'rnatilishida tartibotni ijtimoiy rivojlanishga asos soladi.

Intizom huquq subyekt va obyekti orasidagi muayyan tartib va qoidaning barqaror ijrosini ta'minlanishi uchun xatti-harakatlarning mezonlari bo'yicha majburiyatlarni bajarishdir. Intizom odatda jamoani tartibli harakati, har bir fuqaroni umumiy qonun-qoidalar bilan faol harakatining ma'naviy axloqiy shaxsning irodasini ifodalaydi. Shu bilan birga rus tilida "dissiplina" atamasi o'zgacha ma'no va mazmunga ega bo'lib, fan tarmog'ini ham ifodalaydi. Intizom esa arabiy "Nizom" mazmunida qonunchilikka itoatkorlikni ifodalaydi. Musulmonning intizomi ilohiy haqiqatga bo'ysunish, ixtiyoriy ravishda uning amrini bajarish orqali munosib rag'batlanish ilinjidir.

Intizom jamiyatning barcha sohalari uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy tushmush tartibini tashkil etishning asosiy va ikkinchi darajalai me'yor va qoidalari, milliy diniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida umumiy birga yashash odobini amal qilishdir. Intizomning mazmuni fuqaroning qonun qoida va umumiy talablarga itoatkorlikning psixologik anglash va bajarish odobidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воробьев В. Опыт формирования и становления воинской дисциплины в армии / / Ярославский педагогический вестник. –2009. – № 2. – С. 209.
2. Гмурман В.Е. Дисциплина в школе. –М.: Педагогика, 2004. –344 с. Дисциплина (поведение)// <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
3. Ильичёв Л. Ф., Федосеев П. Н и др. Дисциплина // Философский энциклопедический словарь. - М.: Российская энциклопедия. –2003. –С. 654.
4. Жалилов А. Жамоатчилик назоратига назарий ёндашув// Общество и управление. -2013. -№ 1(1), –С. 69–79.
5. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. –М.: Дело. 2008.
6. Малько А. В. Дисциплина и политика// Право и политика. –2001. –№3. –С. 38.
7. Мирзахмедов А. М Терпимость как правовая культура ислама//Гуманитарий ИжевскГУ. –2017. –№1. –36-43 с.
8. Мирзахмедов А.М., Мирзахмедов Х. А., Абдухоликова Н.А. Семейная жизнь в Центральной Азии// Кронос. – 2021. –№2 (22). –С. 20–29.
9. Мирзахмедов А.М. Молодежная политика Республики Узбекистан //Алма матер. –М.: – 2018. –№ 6. –23-25 с.
10. Муфтиев Р. Г. Понятие, сущность и признаки воинской дисциплины и истории права//Сибирский юридический вестник. –2011.–№1. –С.14-19.
11. Необходимое вступление: взаимосвязь между любовью и дисциплиной// <https://obrazovanie.by/01articles>
12. Парсонс Т. Система современных обществ/ Под ред М. С. Ковалевой. –М.: Аспект Пресс, 1998. – С.16. -270 с.
13. Покуль В. Поведение потребителей как объект междисциплинарных исследований//Человек. Сообщество. Управление. –2018. -№ 19 (1). –С. 117- 125.
14. Правила укрепления дисциплины// <https://obrazovanie.by/01articles>.
15. Репьев А. Г., Репьева А. М. Правовые категории “Законность” и “Дисциплина”: опыт системного исследования// Известия вузов. Поволжский регион. – 2014. -№1. –С. 22-32.
16. Рубанов А. В. Социальный порядок: традиции и современные подходы к изучению //

Вестник БелГУ. Философия. – 2017. – № 1. – С. 45–56.

17. Салимов Б. Л., Бозорбоев О., Раджапбаев Х. Философские взгляды на обеспечение социальной стабильности в обществе//Журнал интегрированного образования и исследований, –2022. –№ 1(6), –С.68–73.

18. Синицина С. В., Кушугулова З. Г. Понятия общественный порядок, общественная безопасность, правовой порядок, их анализ, соотношение и определение// Административное право. – 2014. –№ 22. – С.16-20.

19. Фунтов В. Н. Развитие компании и проекты развития //Экономические науки. –2010. – № 10 (81).

20. Ўзбекистон Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони// <https://lex.uz/uz/docs/5749291>

21. Шейх Мухамад Садык Мухамад Юсуф. Счастливая семья. -Т.: Hilol nashr, –2019. - 608 с.